

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



Ro'yhatga olindi: № BD-60211000-1.10

2024-yil " " \_\_\_\_\_

KOSTYUM TARIXI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60211700 - Grim san'ati

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar	
KT 20014		2024/2025	1-2	4	
Fan/modul turi		Ta'lif tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy		o'zbek/rus		2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotl ari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kostyum tarixi		60	60	120
2.	<b>I.Fanning mazmuni</b>				
	<p>“Kostyum tarixi” fani kostyum tarixi, rivojlanish an’analari, jahon hamda yurtimiz kostyum tarixida qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar bolgan rivojlanish, mavjud uslub, yo’nalish hamda yirik ijodkorlar faoliyati, ifoda vositalari, Respublika madaniy hayotidagi islohotlar, madaniyat istiqboliga ta’sir etadigan masalalarni qamrab olgan. “Kostyum tarixi” bo’lajak soha mutaxassislarining estetik tasavvurini boyitishga, dunyoqarash va fikrlash doirasini kengaytirishga katta ta’sir o’tkazadi.</p> <p>Ushbu fan talabalarda har bir davr kostyumlardagi o’ziga xoslik, an’analarni anglash, estetik baho berish va uning boshqa davr, hudud liboslaridan farqli tomonlarini ajrata olishga turtki bo’ladi. Talabaning ijodiy potensialini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.</p> <p>“Kostyum tarixi” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursning 1-2 semestri davomida o’qitilishi maqsadga muvofiq. “Kostyum tarixi” fani gumanitar va san’at fanlar sohasiga kiradi va grim san’ati bakalavriat ta’lim yo’nalishlarida o’qitiladi. Mazkur fan boshqa san’atga oid fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o’z rivojida aniq yo’nalishdagi ilmiy-ijodiy fanlar uchun zamin bo’lib xizmat qiladi.</p>				
	<b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)</b>				
	<b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>				
	<b>1-mavzu. Libosning asosiy vazifalari va turlari</b>				
	<p>Insoniyat jamiyatida kostyuming o’mi. Moda, stil, kostyum-liboslar tushunchasi. Kostyumlar turi. Asosiy material, hom-ashyo. Kostyumlar kompozitsiyasi, aksessuarlar. Kostyumda jamiyatning g’oyaviy- estetik tasavvurlarning aks etishi. Libos, kostyum, moda, stil tushunchalari.</p> <p>Insoniyat qaysi davrdan boshlab kiyim kiya boshlagani. Antropolog olimlar hayvon terisi, o’simliklar insonni issiqdan, sovuqdan, yomg’irdan himoya qilish uchun ayniqsa bir iqlimdan ikkinchisiga o’tish vaqtida ibtidoiy davr insonlarning libosga murojati. Ba’zi olimlarning kiyim sovuqdan himoya vositasi sifatida qaralmaganini, libosga nisbatan davr kishilarinig dunyoqarashi</p>				

haqidagi tadqiqotlar.

#### **2-mavzu. Qadimgi Misr va Old Osiyo liboslari**

Qadimgi Misr san'ati, hamda kostyumi tarixining asosiy bosqichlari: Qadimgi podsholik (er.avv.3000—2400 yy.), O'rta podsholik (er.avv. 2400—1710 yy.), Yangi podsholik (er.avv.1580—1090 yy.). Matolar va ularning rang, naqshlari (ornament). Erkaklar va ayollar liboslari turlari. Sxenti, kalaziris, klaft. Bosh kiyimlar, soch turmag'i va bezaklar.

Qadimgi Old Osiyo yashash sharoiti. Erkak va ayollar liboslari, Mujskoy i jenskiy kostyum, Bosh kiyimlar, soch turmag'i va bezaklar. Matolar va ularning rang, naqshlari (ornament). Kandi, konas, kidaris- ularning xususiyatlari. Shoh qiyofasini ajratishda aksessuarlar ahamiyati (zont).

#### **3-mavzu. Qadimgi Yunoniston va Rim kostyumlari**

Qadimgi Yunon kostyumlariida "polis"ning roli. Qadimgi yunoniston afsona va rivoyatlari qahramonlarining liboslari. Matolarining badiiy xususiyatlari va kompozitsiyasi. Drapirova – yunon liboslari asosi sifatida. Ioniy va doriy tipidagi liboslar. Yunon kostyumi komponentlari: ichki, ustki, splash, nakidkalar. Erkaklar xiton, gimatiyi va xlamida. Jangchilari libosi. Ayollar xiton va gimatiysi, peplos. Bosh kiyimlar, soch turmamlari va kosmetika.

Rim kostyumlarning o'ziga xosligi va Yunon kostyumlarning ularga ta'siri. Etrusklar davri. Respublika va imperatorlik davrlari kostyumlari farqi. Tunika va toga – qadimgi rim erkaklar liboslari asosi. Ayollar tunika, stola, palla liboslari. Oyoq kiyim, aksesuarlar. Rim jangchisi libosi.

#### **4-mavzu. O'rta asrlar Yevropa kostyumlariда xristiyan dinining tutgan o'rni**

Vizantiya kostyumi. Feodallik davri kostyumlari. O'rta asr kostyumlari – Vizantiya, roman, gotika stilalarining kostyumlarda aks etishi. Vizantiy kostyumida rim-ellenistik madaniyat va xristianliknig uyg'unligi. Erkaklar libosi turlari: tunika, talar, dalmatika, sagum, shtani-chulki. Ayollar libosi: tunika va stola. Vizantiya yoqasi. Oyoq kiyim. Vizantiya liboslarini bezatish uslublari.

#### **5-mavzu. Roman davri kostyumlari**

Roman davri kostyumi (XI-XII). Yevropada feodalizm. Ritsarlar qatlaming shakllanishi. Kamiza va kott – erkaklar libosi. Manto, ishtonlar. Mi-parti. Oyoq va bosh kiyimlar. Ritsarlar libosi. Ayollar libosi – kott va syurko. Bichimlar. Lifning ikki qismgina bo'linishi. Bosh kiyimlar va soch turmamlari. Matolar.

#### **6-mavzu. Gotika davri kostyumlari**

Gotika kostumi (XIII-XIV). To‘qimachilik sanoatida o‘sish jarayoni. Bichish va andozalarning paydo bo‘lishi. Individual buyurtma. Yaxlit bichimdag'i (raspashnoy) va qadalgan yenglar. Erkaklar libosi- purpuen, kotardi va blio. Uplend. Ishton- chulki. Oyoq kiyim. Kapyushonli syurko, mi-parti. Ayollar libosi – kott va kamiz. Shleyfning paydo bo‘lishi. Bosh kiyimlar beguin, shaperon, jen- barbett, gorj, ture. Soch turmag'i va bezaklar.

#### **7-mavzu. Uyg'onish davri Italiya, Fransiya kostyumlari.**

Uyg'onish davrining tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari, uyg'onish davri kostyumlarda shakllarning rivojlanish tendensiyalari. Uyg'onish davri Yevropa (Italiya, Fransiya, Germaniya va Angliya) kostyumlari o‘ziga xosligi va stillari. Italiy. XV asrda moda markazi sifatida Florensiya, XVI asrda Venetsiya shaharlarining o‘rn'i. Florensiya kostyumida fransuz gotika silueti. Qulaylik va badiiy did. Erkaklar va ayollar libosi turlari. Ispan modasi ta’siri. Bezakdorlikning o‘sishi. Ayollar libosi-kott va simara. Soch turmaklari va bezaklar. Ispaniy. Rekonkista. Ritsarlik. Karkas liboslarning paydo bo‘lishi. Erkaklar va ayollar. Matolar. Hashamadorlik.

#### **8-mavzu. Uyg'onish davri Ispaniya, Angliya, Germaniya liboslari**

Fransiya Italiya va Ispaniya ta’siri- yangi shakllar, yangi bichimlar. Germaniy. O‘zgarishlar asri, uning ma’naviy hayotga va san’atga ta’siri. Kostym tarixida roli. Erkaklar libosi Vams. Uzun shtani-chulki, uning ikki tepa va pastki qismlari. Tantanavor erkaklar ko‘ylagi «shaube», uning turlari, rang va sifati. «Faltrok»- vams ustidan kiyiladigan skladkali yubka. Kiyinish uslubi. Landsknext kostumi. Ayollar libosi. «sheybleyn». Soch turmag'i. Oyoq kiyimlar. bos bezaklar. Angliya liboslarning sekin rivoji. Erkaklar libosi XVI asrning birinchi yarmida rubashka, dublet va «djerkina»(fransuz purpueniga o‘xshash ustki kiyim). «Nezer-stoks» va «appa-stoks». Tantanavor ustki kiyim «gaun». XVI asrning ikkinchi yarmida ispan modasining ta’siri, uning belgilari. To‘quv mashinasining paydo bo‘lishi. Ayollar libosi. Nisbatlar, uyg'unlik, bezaklarda meyor darajasi. Ispan modasining ta’siri. Karkasli yubkalar, shakllarning kattalashishi. Rafi – o‘ziga xos yoqalar. Otta yurish uchun mo‘ljallangan liboslar.

#### **9-mavzu. XVII asr G‘arbiy Yevropa mamlakatlari kostyumlari**

XVII asr Fransiya erkaklar kostumi. Keng va qulay shakllar. To‘r manjet yengli va keng yoqali oq rubashkalar. Dekorativ kesmali keng yengli kamzol. Pantalonlar, chulki. Shpaga — dvoryan kostyuming majburiy kamzol. Aksessuari, Aksessuari- xassa, qo‘lqoplar va bosh. Ayollar libosi. Jangchilar aksessuari, Aksessuari- xassa, qo‘lqoplar va bosh. Ayollar libosi. Jangchilar kostumi. Ispaniya modasining fransuz modasi ta’siri ostida rivojlanishi. XVII

O‘quv qo‘llanma. –T.: Innovatsion Ziyo, 2021. 413b.

4. Kultasheva N. Umumsan’at tarixi (O‘rta sarlar Yevropa san’ati). O‘quv qo‘llanma. - T.: Noshir. 2019. 184 b.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Kultasheva N. Umumsan’at tarixi (XIX asr G‘arbiy Yevropa san’ati). -T. Innovatsion Ziyo. 2019. 307 b.
2. Sodiqova N. O‘zbek milliy kiyimlari. XIX-XX asrlar. – T.: Nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2006. -192 b.
3. Abdullayev N. San’at tarixi. 2 jildlik. Birinchi kitob. T.: San’at, 2001.
4. Abdullayev N. Sharq xalqlari san’ati. – T.: Avto Nashr, 2007.
5. Abdullayev N. O‘zbekiston san’ati tarixi. – T.: Avto Nashr, 2007.

#### **Axborot manbaalari**

- 1.www.vgik.info
2. www.zyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.google.com
5. www.smallbay.ru

7. **O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

8. **Fan/modul uchun mas’ullar:**  
P.Q.Bekmurodova – O‘zDSMI, “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**  
A.H.Ismoilov – San’atshunoslik instituti bo‘lim mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
O.Z.Rizayev - O‘zDSMI, “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi.

	<p>9. Uyg'onish davri G'abiy Yevropa liboslari      10. XVII-XVIII asrlar G'abiy Yevropa liboslari      11. XIX-XX asrlar G'abiy Yevropa liboslari      12. Rossiya liboslari.      13. Sharq davlatlari liboslari. (Arab Xalifaligi, Eron, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, Xitoy).      14. Markaziy Osiyo va O'zbekiston liboslari (tarix va zamonaviylik).      15. Mustaqillik davri liboslari</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>kostyumlarning qaysi davrga hosligin, kostyumlarning o'ziga hos hususiyatlarini anglash, qanday holatlarda qaysi liboslar kiyilganligi, qaysi tabaqa vakillari qanday kostyumlar kiyganlari, kostyumlarning o'tmishdagi ko'rinishi, his etish va uning badiiy g'oyasini anglash <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;</i></li> <li>kostyumlarning tasviri san'at taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini, kostyum san'atiga oid atamalarni, kostyumlarni yaratilishida ommanning ma'naviy turmushida egallagan o'rni haqida <i>bilimga ega bo'lishi;</i></li> <li>har bir xalqning kostyumlarini ajrata olish, kostyumlarda ramziy belgilarini ko'ra olish, o'z bilim va tushunchalari asosida kostyumlarni mustaqil ravishda mukammal ajratish va tahsil qila olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>blits-so'rov;</li> <li>guruhlarda ishlash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>jarayonga asoslangan metod.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahsil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Xasanboyeva G.K., Chursina V.A. Kostym tarixi. Darslik. – T.: Uzbekistan. 2002. – 320 b.</li> <li>D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova. Libos tarixi. Darslik, – T.: Sano-standart, 2015. – 368 b.</li> <li>Kultashev B., Kultasheva N. Umumsan'at tarixi (qadimgi dunyo tarixi).</li> </ol>

asr ikkinchi yarmida fransuz kostyumi (Lyudovik XIV davri) Yevropada Fransiyaning o'rni. Etiket. Birinchi moda jurnali — «Mercure galante»ning chop etilishi. San'atda va kostyumda barokko stili. Erkaklar kostyumi: braser, kaftan — «jyustokor», vesta — kurtka, shossi, shpaga. Oyoq kiyimlar, soch turmaklar va bosh kiyimlar. Ayollar libosi, soch turmaklari va bezaklari. Kosmetika.

#### **10-mavzu. XVIII asr G'abiy Yevropa mamlakatlari kostuymlari: rokoko**

XVIII asr boshi Burbonlar davrida o'ziga xosligi. Erkaklar va ayollar libosi. XVIII asrdagi rokoko stilining asosiy xususiyatlari. Erkaklar libosi jilet; rubashkadagi jabo. Katta mustflar va «getri». Ayollar libosi. Sorochka, korset va «fijmi». Ichki va ustki ko'yak — «frepon» va «modest». «Kontush» — «Vatto skladkali» ko'yak. Ayollar ovi liboslarining paydo bo'lishi. Oyoq kiyim, kosmetika, bezaklar, soch turmaklari (pariklar). San'atda klassitsizm, «So'nggi rokoko»—18 asr o'rtalari modasi tendensiysi. 18 asr 70 yillarda angliya moda ta'siri. Qulay bichimli, sodda erkaklar libosi. Sukoniyy frak, kalta sariq jilet, charm ishtonlar, etiklar va dumaloq shlyapa. «Redingot». Oyoq kiyim. Ayollar libosi. «Polonez» tonggi ayollar ko'yagli. Kundalik ayollar libosi. Tuya qush va tovus patli bosh kiyimlar. Qo'l qop, zontik, trost, lornet. Bosh kiyimi bilan yaxlit murakkab soch turmag'i — «kuafyura», uning gullar, mevalar savatlari va kemalar shaklidagi bezaklari. Fransiyada inqilob va kostym haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi. Tabaqalanishlarining yo'q bo'lishi. «Karmanyola», yakobinetlар libosi. Ayollar libosi. Direktoriya davri (1795—1799) liboslarida klassitsizm stili. Imperiya davri (XIX asr boshi) imperatora Napoleona I hukmronligi. Ampir stili - soddalik, antik ornamentlarning qo'llanishi, korset. Erkaklar libosining soddalashishi. Turli ayollar bosh kiyimlari, shlyapa «tok», tyurban, uzun barmoqsiz qo'lqoplar, shal va russ shubalari. Oyoq kiyimlar.

#### **11-mavzu. XIX asr liboslari. Yevropaning zamonaviy moda uylari**

Inqilob va sanoat to'ntarilishi. Uning kostym tarixidagi o'rni. Fransiyada kostym tarixinining ikki bosqichi: 1825—1840 yillar — bidermeyer, 1840—1850 yillar — romantizm. Erkaklar kostyumi. Katak matolar. Frak, syurtuk, uzun tor shimlar, silindr, jilet. Kundalik ustki libos — figuraga tikilgan palto. Ayollar libosi. Shinyon soch turmaklari. Zontiklar, mustfi. Kostyumda romantizm (1840gg) — antik, gotika, barokko, rokoko an'analarini mato fakturasi, rangi, ornamentlarda, kostyuming dekorativ va konstruktiv yechimida. XIX asr 50-60 yillarda — «ikkinchilik imperiya modasi» yoki «ikkinchilik rokoko» stili. Kutyure tushunchasi. Charlz Frederik Vort (1825—1895 yy.).

### **12-mavzu. XX asr Yevropa kostyumlari: an'ana va tendensiyalari**

Modaning globallashuvi. XX asr boshida Yevropa kostyumlari rivojiga ta'sir etgan faktorlar: kuchli texnik ko'tarilish, ommaviy sanoat ishlab chiqarilishining hukmronligi, yangi sharoitlar va yangi tur mush tarzi (transportning rivoji, ishlab chiqarishda ayollar mehnatidan foydalanish, sporta va 1914—1918 yillardagi urush ta'siri. Liboslarda konstruktivizm. Gabriel Shanel, K. Lagerfeld va K. Lakrua. Yangi matolar. Yapon dizaynerlari ta'siri.. «Xippi-shik» yoki «neo-granj», «sport», «militari», «romantik» stillari.

### **13-mavzu. Rossiya liboslari**

Qadimgi Rus erkak va ayollar liboslari. Rubaxa, portlar, onuch, lapti, zipun, sorochka, sarafan, dushe greya, ponyova liboslari. Liboslardagi naqsh ornamentlari. Matolarning ranglari. Poyafzal va bosh kiyimlar. Taqinchoqlar va pardozi buyumlari.

### **14-mavzu. Sharq davlatlari liboslari. (Arab Xalifaligi, Eron, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, Xitoy)**

Arab liboslari. Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o'ziga xos yechimi. Erkaklar va ayollar liboslari. Dishdash, chakmon, jubba, kuffiya, gutra, milfu, gandura, shirvap liboslari. Bosh kiyim va taqinchoqlar.

Qadimiylar madaniyatiga bosib olgan xalklar madaniyatlarini ta'siri. Erkak va ayollar libosi. "Kaftan", "anaksrides", "kandis", "mitra", "sutxni" liboslari. Erkaklarning poyafzallari. Ayollarning liboslari. Poyafzallari va bosh kiyimlari. Soch turmaklari va taqinchoqlari.

Hind matolaridagi ramziy ma'nolar. Hind erkaklari kiyimlari. "Upavasa" va "paridxana" yopinchiglari. "Nimdxoti", "adxivasa" kiyimlari. Sarining turlari. Yelka kiyim — "kamis". Bilaguzuk "churidara".

Xitoy erkak va ayol liboslari. Dunyo tuzilishi dialektikasining ramzalari: Grafik ramzları, geometrik shakllar ramzi, raqam ramzları, rang ramzları, o'simlik va tirik jonlar ramzları. "Chan pao", "kan szyan", "pao", "bey sin", "si pao", "kusza" liboslari.

Yapon liboslari. "Sitagi", "fundosi", "kosimaki", "dzyuban", "nagadzyuban", "kimono", "sagefuku", "fundagi", "xaregi", "refuku" kiyimlari. Poyafzal va bosh kiyimlar. Taqinchoqlar.

### **15-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy, tarixiy liboslari**

O'rta Osiyo xalqlari libosi. Qozoq liboslari. Qozoq xalq naqshlari. Qadimiy qozoq an'anaviy liboslari. Erkak va ayollar libosi.

Qirg'iz an'anaviy liboslari. Erkak va ayollar libosi. Poyafzal va taqinchoqlari. Pardozi buyumlari.

Tojik an'anaviy liboslari. Erkak va ayollar libosi. Poyafzal va taqinchoqlari.

Pardozi buyumlari.

Turkman an'anaviy liboslari. Erkak va ayollar libosi. Poyafzal va taqinchoqlari. Pardozi buyumlari.

O'zbek an'anaviy liboslari. Milliy liboslar, bezaklar va pardozi-andozlar. Matolar. Erkaklarning milliy liboslari. Ayollarning milliy liboslari. Toshkent – Fapg'ona liboslari. Buxoro – Samarkand liboslari. Qashqadaryo – Surxondaryo liboslari. Xorazm liboslari. Marosim kiyimlari.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Libosning asosiy vazifalari va turlari
2. Qadimgi Misr liboslari
3. Qadimgi Old Osiyo liboslari
4. Qadimgi Yunon kostyumlari
5. Qadimgi Rim kostyumlari
6. Vizantiya, Roman va Gotika liboslari
7. Italiya, Fransiya, Ispaniya, Angliya, Germaniya liboslari
8. XVII – XVIII asrlar G'arbiy Yevropa mamlakatlari liboslari
9. XIX asr oxiri XX asr boshlari Yevropa kostyumlari stili va tendensiyalari.
10. Rossiya liboslari
11. Sharq davlatlari liboslari.
12. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy, tarixiy liboslari
13. O'rta Osiyo liboslari
14. O'zbekiston liboslari
15. Mustaqillik davri liboslari

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlari**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzu va faoliyat turlari:

1. Ibtidoiy jamoa davrida liboslarining paydo bo'lishi
2. Libos, kostyum, moda va stil tushunchalari haqida
3. Libos turlari, funksiyalari
4. Qadimgi Osiyo liboslari. Qadimgi Misr va Old Osiyo liboslarining farqlari
5. Antika davri liboslari. Qadimgi Yunoniston va Rim kostyuming o'xshashlik va farqli tomonlari
6. Vizantiya liboslari
7. Roman davri liboslari
8. Gotika davri liboslari